

平成25年度言語研修  
ウズベク語研修テキスト4

O‘zbek Tilining Asosiy 1000 ta Jumla

# ウズベク語基礎例文 1000

Basic Uzbek Phrases 1000

中嶋 善輝 著

東京外国語大学  
アジア・アフリカ言語文化研究所

2013





## まえがき

本書は、2013年度 東京外国語大学 アジア・アフリカ言語文化研究所主催のウズベク語研修に際し、その教材の一つとして編纂したものである。

ウズベク語は、中央アジアに位置するウズベキスタン共和国を中心に、2500万人ほどの人口をもつウズベク系の人々の多くが話す割合大規模なチュルク語である。

ひと月という短期でウズベク語の基礎をマスターするという本研修の主旨に則り、本書の構成は、チュルク語の形態構造に依拠して基礎例文を収集、配列した点にある。即ち、ウズベク語は、他のチュルク語同様、究極的には、名詞類、動詞類、不変化詞類の3つのみから成り立っている。名詞類とは格語尾が付加される語彙類であり、動詞類とは動詞語幹そのもの若しくは、それのみに付加され得る接尾辞を取る語彙要素と言える。不変化詞類は、通常、そのいずれも付加されない語彙要素である。

以上の観点に基づき、筆者は本書の例文を概ね次のように配した。

1～99までが名詞類や不変化詞類に属し動詞的要素を殆ど含まない語彙からなる、一般に名詞や形容詞などに分類される単語を中心に構成された句や文章。100～199までは、動詞性の名詞すなわち動名詞 (=moqと=ish<sup>2</sup>) からなる文、200～299までは動詞類の文末助詞 (edi) が用いられた単純な文である。まずはここまで格語尾の用法と語彙力の向上を目指している。

これ以降は、動詞が活用して作る以下の様々な表現形式を、豊富な例文によって1つずつ着実に学び取ってゆく単元である。

300～299は、1個の動詞語根を用いた最も基本的な現在未来形の肯定文を学ぶ。これは未完了副動詞 (=a<sup>2</sup>) の文末用法で、人称助詞をつけて作るものである。400～429はその否定文の学習である。以降430～499までは動名詞=ish<sup>2</sup>を基本的に1つ（時に2つ）含む現在未来形の例文を配している。

500台は、未完了副動詞 (=a<sup>2</sup>) と完了副動詞 (=ib<sup>2</sup>) を、いわゆる連用形として用い、動詞を修飾する文が登場する。500～539は未完了副動詞 (=a<sup>2</sup>) が未完了副動詞の文末用法と組み合わさった例文である（ここでは特に可能表現に限定した）。539～579は完了副動詞 (=ib<sup>2</sup>) が現在未来形と共に用いられた例文である。残りの580～599は、完了副動詞 (=ib<sup>2</sup>) の文末用法の例文となる。ここまで、1つの文は動詞語根が基本的に2つ（時に3つ）使われた平易な構造の表現となっている。

600台は=gan系形動詞 (=gan<sup>3</sup>（完了）、=ayotgan<sup>2</sup>（進行）、=adigan<sup>2</sup>（未完了））の学習を順に行う。

700～749は見込形動詞 (=ar<sup>2</sup>（肯定形）/=mas（否定形））の学習である。

750～799は、助動詞+yapを用いた用例である。

800～899 は、動詞の過去形 (=di) を学ぶ。

900 台では、939 までが少々使用頻度の落ちる 3 つの副動詞 (900～919 目的副動詞 (=gani<sup>3</sup>)，920～929 順序副動詞 (=gach<sup>3</sup>)，930～939 限界・選択副動詞 (=guncha<sup>3</sup>)) を紹介する。940～960 は条件形 (=sa)，970～1000 は、命令形を人称に応じて順に学ぶこととなる。

本書は 1～1000 まで一見シンプルに例文が並ぶ構成をしてはいるものの、上述の順で後で取り上げる文法事項は、決して通し番号を遡って現れることはない、つまりフライングしない構成を貫徹している。多くの外国語教材で見られる、未習の文法事項が学習の早い段階で現れることによるつまずきや学習ストレスを、本書は極力取り除く配慮をしながら編んだものである。

外国語の運用には、基本文型の習得と、場面に応じて入れ替えられる豊富な語彙力がカギとなる。本書に収められた選りすぐりの例文を、順を追って根気強く読み進めたならば、短期間とはいえ、文法事項の体系的な理解と分析力が身に付く他、基本文型が習得でき、語感の涵養と語彙力アップも効果的に行えよう。

2013 年 7 月吉日  
中嶋善輝

## [記号]

- / 並列を表す.  
( ) 括弧の前の語句と括弧内の語句の、一例としての交換可を表す.

## [参考文献]

中嶋善輝 (2008), 『トゥヴァ語基礎例文 1500』, 平成 20 年度言語研修トゥヴァ語研修テキスト 5, 東京外国語大学 アジア・アフリカ言語文化研究所, 東京.  
——— (2009), 『モンゴル語基礎例文 1000』, 平成 21 年度言語研修モンゴル語研修テキスト 4, 東京外国語大学 アジア・アフリカ言語文化研究所, 東京.

### (ラテン文字文献)

- Abdurahimov, M. M., (2011), *O'zbekcha-Ruscha va Ruscha-O'zbekcha Lug'at*, Ikkinci nashhri, «Akademnashr», Toshkent.
- Bonk, N. A., Kotiy, G. A., Lukanova, N. A. (2012), *Ingliz Tili Qo'llanma*, Ingliz Tili Darsligi 1-qism, «ART FLEX», Toshkent.
- Butayev, Sh., Irisqulov, Abbos. (2009), *Inglizvha-O'zbekcha O'zbekcha-Inglizvha Lug'at*, 70.000 so'z va ibora, «Fan», Toshkent.
- Hoshimov, O'. (2007), *O'zbeklar*, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent.
- Mahmudov, N., Nurmonov, A., Sobirov, A., Nabiyeva, D. (2009), *Ona Tili* 6, «TASVIR», Toshkent.
- Mahmudov, N., Nurmonov, A., Sobirov, A., Nabiyeva, D., Mirzaahmedov, A. (2009), *Ona Tili* 7, «MA'NAVIYAT», Toshkent.
- Mamatov, J., Horlick, M., Kadirova, K. (2011), *Comprehensive Uzbek - English Dictionary*, Dunwoody Press, Hyattsville, Maryland.
- Nigora, A. (2010), *Uzbek : an elementary textbook*, Georgetown University Press, Washington.
- Rafiyev, A., Niyozmetova, R., Dulabov, F., (2007), *O'zbek Tili*, «ILM ZIYO» nashriyot uyi, Toshkent.
- Xolmuradov, A. A., R. X. Aziziv, (2007), *English-Uzbek, Uzbek-English Dictionary*, G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, Toshkent.
- G'apporov, M., Qosimova, R. (2012), *Ingliz Tili Grammatikasi*, «TURON-IQBOL», Toshkent.

### (キリル文字文献)

- Исматуллаев, X. X., (1991), *Самоучитель Узбекского Языка*, «Ўқитувчи» Нашриёти, Тошкент.
- Комилов, М. Б., (2007), *Ўзбекча-Русча-Инглизча Сўзлаигич*, «TURON-IQBOL» Нашриёти, Тошкент.
- Красных, В. И., Гаюпов, С. И., (1988), *Узбекско-Русский и Русско-Узбекский Разговорник*, Издательство «Русский Язык», Москва.

Маъруфов, З. М., (1981), *Ўзбек Тилининг Изоҳли Лугати*, I (А-Р)-II (С-Х),  
Ўзбекистон ССР Фанлар Академияси А. С. Пушкин Номидаги Тил ва Адабиёт  
Институти, «Рус Тили» Нашриёти, Москва.

Мирзаев, Т. ва бошқ. (2006), *Ўзбек Тилининг Изоҳли Лугати*, 1 - 5, Ўзбекистон  
Республикаси Фанлар Академияси Тил ва Адабиёт Институти, «Ўзбекистон  
Миллий Энциклопедияси» Давлат Илмий Нашриёти, Тошкент.

- 1) Salom!
- 2) Assalomu alaykum. – Vaalaykum assalom.
- 3) Xayr.
- 4) Rahmat.
- 5) Iltimos.
- 6) Xo‘p. / Ma’qul.
- 7) Uzr.
- 8) Marhamat.
- 9) Ruxsat.
- 10) Ha. / Yo‘q.
- 11) To‘g‘ri.
- 12) Albatta.
- 13) Bajonidil.
- 14) Ajoyib.
- 15) Afsus.
- 16) Ehtimol, shunday.
- 17) Juda yaxshi.

- 18) Hechqisi yo‘q.
- 19) Uncha yaxshi emas.
- 20) Nima gap?
- 21) Men hozir bandman.
- 22) Men roziman (/ qarshiman).
- 23) Siz haqsiz.
- 24) Siz o‘qituvchimisiz? – Yo‘q, men o‘qituvchi emasman, men talabaman.
- 25) Yaxshimisiz? – Rahmat, yaxshi. Siz-chi?
- 26) Sen kimsan?
- 27) U kim? – U o‘qituvchi.
- 28) Ular katta va toza.
- 29) Bu nima? – Bu lug‘at.
- 30) Bu qanaqa bino? – Bu teatr.
- 31) Anavi xonalar yaxshi.
- 32) Ular – ishchilar.
- 33) Bular o‘zbekcha kitoblar.

- 34) Bular shunday qiziq kitoblar.
- 35) Bu qalammi yoki ruchkami?
- 36) U qalam sizniki.
- 37) Bu kitob meniki, unisi esa sizniki.
- 38) Bu lug‘atdir.
- 39) Bilim – kuchdir.
- 40) Bu yigit mening akam.
- 41) Mening lug‘atim yo‘q.
- 42) Bular mening jurnallarim, ular esa sizniki.
- 43) Bu bizning sinfxonamiz.
- 44) Bizning yukimiz ko‘p.
- 45) Mana sizning pasportingiz.
- 46) Sizning o‘g‘lingizning ismi nima?
- 47) Men sizning taklifingiz tarafboriman.
- 48) Xo‘s! Bu haqda sizning fikringiz qanday?
- 49) Salom, ahvollaringiz qalay? – Rahmat, juda yaxshi.
- 50) Bu sening qalaming.

- 51) Sening qancha puling bor?
- 52) Sening bahoing “yaxshi”.
- 53) Bu kimning lug‘ati?
- 54) Ularning hech qanday aloqasi yo‘q.
- 55) Bu kimning daftarlari? – Bu bizning talabalarning daftarlari.
- 56) Bular kimning sumkalari? – Ular bizning sumkalarimiz.
- 57) U shaharning aholisi qancha?
- 58) Yakshanba kunlari shahar kutubxonasi yopiq.
- 59) Bizning institutimiz kutubxonasi juda yaxshi.
- 60) Hozir u mакtabda.
- 61) Sizning o‘rtog‘ингиз hали Toshkentdами?
- 62) Xonada telefon bormi? – Yo‘q.
- 63) Mening qizil qalamim qayerda?
- 64) Bolalar, qayerdasiz?
- 65) Hozir biz uning kvartirasidamiz.
- 66) Bu jurnalda ko‘p suratlar bor.
- 67) Menda vaqt oz.

- 68) Sizda luks xona bormi?
- 69) Qutida hech narsa yo‘q.
- 70) Men sizning yordamingizga muhtojman.
- 71) Bu qutilar juda kichkina; bizga kattaroqlari kerak.
- 72) Istagan iltimosga uning javobi «yo‘q».
- 73) U yerda ellikka yaqin odam bor.
- 74) Ering va bolalaringga katta salom.
- 75) U vitaminlarga boy va juda mazalidir.
- 76) Bu masalaning menga ahamiyati yo‘q.
- 77) Yuk katta qimmatga ega.
- 78) Xona kuniga (/ haftasiga) necha pul?
- 79) Mening unga hurmatim katta.
- 80) Men sizdan ikki yosh kattaman (/ kichikman).
- 81) Sizning qizingiz mening qizimdan kattaroq.
- 82) U hozir ota-onasidan butunlay mustaqil.
- 83) U yerda 200 dan ziyod odam bor.
- 84) U bu yerdan uzoqdamli?

- 85) Bugun kechagidan iliqroq.
- 86) Yer quyoshdan millionlab kilometr uzoqlikda.
- 87) Qishda kunlar yozdagidan qisqa, to‘g‘rimi?
- 88) Men sizdan xafaman.
- 89) Ma’ruza uch qismidan iborat.
- 90) Bizning uyimizdan daryogacha bir kilometr.
- 91) Temir yo‘l vokzaligacha uzoq emas.
- 92) Abtobus bekatigacha yayov o‘n minutlik yo‘l.
- 93) Ular 50 kilogrammgacha vaznga ega.
- 94) Muzey ertalabki 10 dan kechki 8 gacha ochiq.
- 95) Unda ertagacha xayr.
- 96) Kofe juda kuchsiz ekan.
- 97) Bu sizning kitobingizmi? – Ha, u qayerda ekan?
- 98) Sochingiz juda uzun ekan.
- 99) Sizning juda yaxshi bolalaringiz bor ekan.

- 100) Men bu filmni ko‘rmoqchiman.
- 101) Men o‘zbek tilini o‘rganmoqchiman.
- 102) Biz buni hafta oxirida qilmoqchimiz.
- 103) Biz ularni tushlikka taklif qilmoqchimiz.
- 104) Siz yana nimani muhokama qilmoqchisiz?
- 105) Yozgi ta’tilni qayerda o‘tkazmoqchisizlar?
- 106) Eng avval men sizni xotinimga tanishtirmoqchiman.
- 107) Siz unga yana nimalarni yozmoqchisiz?
- 108) Siz o‘ynamoqchimisiz yoki faqat o‘yinni tomosha qilmoqchimisiz?
- 109) Ulardan ayrimlarini tarjima qilmoqchiman.
- 110) Kechqurun nima qilmoqchisiz?
- 111) Siz bu bilan nima demoqchisiz?
- 112) Siz bilan kimdir gaplashmoqchi.
- 113) Bu yerda sentabrgacha bo‘lmoqchiman.
- 114) Men bu haqda bir-ikki og‘iz gapirmoqchiman.
- 115) Bu yil qachon ta’tilga chiqmoqchisiz?

- 116) U doktor bo‘lmoqchi.
- 117) U kelasi yili Osakaga kelmoqchi.
- 118) Ular biznikida yakshanbagacha qolishmoqchi.
- 119) Ular bu haftada turmush qurishmoqchi.
- 120) Men buni qilmoqchi emasman.
- 121) Men qatnashmoqchi emasman.
- 122) Biz bunday mashinalarga buyurtma bermoqchi emasmiz.
- 123) Men bu maslahatlarga amal qilmoqchi emasman.
- 124) Men sizni bezovta qilmoqchi emasman.
- 125) Kunlar tobora uzaymoqda.
- 126) Shamol pasaymoqda.
- 127) Sizni nima bezovta qilmoqda?
- 128) Itingiz ang-ang qilmoqda, tinchlikmi dadasi?
- 129) Ular topshiriq asosida gapirmoqdalar.
- 130) Uni hoziroq topish kerak.
- 131) Bu kuylakni yuvish kerak.
- 132) Bu xaltalarni quritish kerak.

- 133) Ishni davom ettirish kerak.
- 134) Men buni hozir qilishim kerak.
- 135) U yerga darhol borishim kerakmi? – Ha, kerak.
- 136) Men dugonamga qo‘ng‘iroq qilishim kerak.
- 137) Ishdan so‘ng idorada qolishim kerak.
- 138) Men buni zudlik bilan qilishim kerak.
- 139) Bu mashqni yozishingiz kerakmi?
- 140) Buni siz hal qilishingiz kerak.
- 141) Siz, albatta, yaxshi dam olishingiz kerak.
- 142) Siz bunchalik erta kelishingiz kerak emas.
- 143) Siz xatni darhol jo‘natishingiz kerak.
- 144) Siz doktorga ko‘rinishingiz kerak.
- 145) Siz uni boshlashdan oldin yaxshi dam olishingiz kerak.
- 146) Mening do‘stim ispanchani o‘rganishi kerak.
- 147) U hozir kutubxonada bo‘lishi kerak.
- 148) U do‘stiga yordam berishi kerak.
- 149) U bilan ukasi uyni bo‘yashlari kerak.

- 150) Shahrimiz ko‘chalarida ko‘p yangi chiroyli binolarni ko‘rish mumkin.
- 151) Sizning ruchkangizdan foydalanish mumkinmi?
- 152) Biz bu zaldan oshxona sifatida foydalanishimiz mumkin.
- 153) Siz mening lug‘atimni olishingiz mumkin.
- 154) Siz faqat indingi kunga chipta olishingiz mumkin.
- 155) Mening chang‘im yo‘q. – Menikini olishingiz mumkin.
- 156) Uyga ketishingiz mumkin.
- 157) Siz mana bu xonada ishlappingiz mumkin.
- 158) Siz paltoingizni yechishingiz mumkin.
- 159) Siz buni ertaga ertalab qilishingiz mumkin.
- 160) Ular hali ham shu yerda bo‘lishi mumkin.
- 161) Bunday kitoblar barcha kutubxonalardan topilishi mumkin.
- 162) Unga bu jurnallarni dushanba kuni ertalab berishlari mumkin.
- 163) Soat uchdan so‘ng bo‘lishi mumkin.
- 164) Ular bu oqshom kelishlari mumkin.

- 165) Ular bizga shu kunlarda xat yozishlari mumkin.
- 166) Sizning qizingiz quyoshda yurishi umuman mumkin emas.
- 167) O‘zbek tilidagi *so‘ng* (*keyin*) so‘zini ingliz tilida ikki xil berish mumkin.
- 168) Bu yerda chekish mumkin emas.
- 169) Unga bunchalik ko‘p ishslash mumkin emas.
- 170) Bunday havoda mashina haydash xavfli.
- 171) Biz haqiqatni bilishimiz muhim.
- 172) Aqlli bo‘lishidan tashqari u juda tirishqoq.
- 173) Bu testdan o‘tish qiyin.
- 174) Bu haqda gapirishning foydasi yo‘q.
- 175) Bunday qilishning zarari yo‘q.
- 176) Mollarni qattiq qutilarga joylash zarur.
- 177) Sizga buni qilish zarur emas.
- 178) Uning bunday o‘ylashi g‘alati.
- 179) Biz hozir jo‘nashga tayyormiz.
- 180) Bugun u yerga borishdan ma’no yo‘q.

- 181) Menimcha, buni qilish sizga qiyin emas.
- 182) Bu masalani muhokama qilishga hali ancha erta.
- 183) Hozir biror narsa qilish uchun juda kech.
- 184) U erta turish odatiga ega.
- 185) Menda yozish uchun ruchka yo‘q.
- 186) Biz hammamiz sizni ko‘rishdan xursandmiz.
- 187) Yozda biz o‘qishga borishga majbur emasmiz.
- 188) Cho‘milish yoqimli.
- 189) Xat yozish uchun oqshom ajoyib vaqt.
- 190) Qalin jaketni kiyishga hali yetarlicha sovuq emas.
- 191) Bugun diktant yozishimiz shartmi?
- 192) Uning mактабни ташлашибига баёнда yo‘q.
- 193) Сиз кутубхонага боришингизга хојат yo‘q.
- 194) У бизни бунчалик erta uyg‘otishining hojati yo‘q.
- 195) Bu yer juda sershovqin. Ishlashning umuman iloji yo‘q.
- 196) Dam olish kuni daryo qирғ‘ог‘ида hordiq chiqarish maroqli.
- 197) Ko‘p ko‘cha va maydonlarni tanish amrimahol.

198) Bu hujjatni imzolashga e'tirozingiz bormi?

199) Siz mamlakatimizda birinchi marta bo'lishingizmi?

- 200) Choy sovuq edi.
- 201) U kecha kasal edi.
- 202) Hikoya qiziq edi.
- 203) Hamma jim edi.
- 204) Shahar juda chiroyli edi.
- 205) O'sha kuni havo juda toza edi.
- 206) Xona juda ham qorong'i edi.
- 207) Hamma yig'ilishda edi.
- 208) Ularga issiq edi.
- 209) U kulrang kostumda edi.
- 210) Teatr doimo liq to'la edi.
- 211) U yozda Samarqandda edi.
- 212) Mening opam ertalab shu yerda edi.
- 213) U uyda yolg'iz edi.
- 214) U yerda ko'pgina odamlar bor edi.
- 215) Shishada suv yo'q edi.
- 216) Bu yerda hech kim yo'q edi.

- 217) Uning esida yo‘q edi.
- 218) Hamma yoqda daraxtlar bor edi, bitta ham uy yo‘q edi.
- 219) Xona odamlar bilan to‘la edi.
- 220) Bu masalada hamma xuddi shunday fikrda edi.
- 221) Sumkangizda qancha pul bor edi?
- 222) U urush paytida Amerikada edi.
- 223) Hamma bir xil fikrda edi.
- 224) Boshida kasal juda ham darmonsiz edi.
- 225) U do‘stlari orasida edi.
- 226) Bizning oramizda Sherzod ismli kishi bor edi.
- 227) U qizda ko‘k kastum, o‘sha rangdagi sumka va tufli bor edi.
- 228) U qizning qo‘lida sumka bor edi.
- 229) Bu mening ruchkam emas. Meniki umuman boshqacha edi.
- 230) Hamma xushchaqchaq va quvnoq edi.
- 231) U o‘g‘lining muvaffaqiyatsizligidan xavotirda edi.
- 232) Fevraldagi bir quyoshli, sovuq chorshanba edi.
- 233) Uning so‘zlarida g‘ayriodatiy bir iliqlik bor edi.

- 234) Uning ma'ruzasida bir-ikkita xato bor edi.
- 235) Daryoning har ikkala qirg'og'ida chiroyli uylar bor edi.
- 236) Stolning har ikkala tomonida stullar bor edi.
- 237) U yerda yigirmatalab odamlar bor edi.
- 238) Yig'ilishda yuzdan ziyod kishi bor edi.
- 239) U yerda ellikka yaqin odam bor edi.
- 240) U yerda qariyb 500 kishi bor edi.
- 241) U yerda 200 dan ziyod odam bor edi.
- 242) Na eshik, na deraza ochiq edi.
- 243) Uning ko'zлari quvnoq edi.
- 244) Ijrochilar tarkibi juda yaxshi edi.
- 245) Xonada ikkita qiz va bitta o'g'il bola bor edi.
- 246) Sumkangizda qaysi kitoblar bor edi?
- 247) Uning katta kutubxonasi bor edimi?
- 248) Biz uchun u qadar issiq emas edi.
- 249) Kecha havo bugungichalik yaxshi emasdi.
- 250) U u yerda emasdi.

- 251) Bunaqa emasdi.
- 252) Uning bolalari ham u bilan birga edilar.
- 253) Dilshod ham Laylo ham o'sha yerda edilar.
- 254) Ular u yerda emasdilar.
- 255) Besh yil avval men talaba edim.
- 256) Men unda talaba edim.
- 257) Men kecha juda band edim.
- 258) Chunki men kasal edim.
- 259) Men boshqacha fikrda edim.
- 260) O'sha paytda men tasodifan o'sha yerda edim.
- 261) Men bugun kunduzi band edim.
- 262) Men uning sofdilligiga amin edim.
- 263) Men u yerda emasdim.
- 264) Biz taklifga qarshi edik.
- 265) Kecha oqshom biz uyda edik.
- 266) Kecha qayerda edingiz?
- 267) Siz ham o'sha yerda edingizmi?

- 268) Siz kecha navbatchi edingiz, shunday emasmi?
- 269) Siz kecha adabiyotning ma’ruzasida yo‘qmidingiz?
- 270) Unga do‘sti telefon qilmoqchi edi.
- 271) Men uyga qachon kelishimni u bilmoqchi edi.
- 272) Men unga bir nechta savol bermoqchi edim.
- 273) Biz ko‘lgacha bormoqchi edik.
- 274) Men sizning dilingizni og‘ritmoqchi emas edim.
- 275) Akam bo‘yi uzun bir odam bilan kelmoqda edi.
- 276) Yong‘in chiqishi xavfi tobora aniqlashmoqda edi.
- 277) U xayolan umr bekatlari bo‘ylab safar qilmoqda edi.
- 278) Ko‘pchilikning diqqatini o‘zlariga tortmoqda edilar.
- 279) Sovuq uning vujudini dir-dir qaltiratmoqda edi.
- 280) Uyda qolishim kerak edi.
- 281) Siz buni kecha qilishingiz kerak edi.
- 282) Men ishimni kecha tugatishini kerak edi.
- 283) Ular u yerga borishlari kerak edimi?
- 284) U ularga yordam berishi kerak edi.

- 285) U o'sha telegrammani jo'natishi kerak edi.
- 286) U kecha kelishi kerak edi.
- 287) Siz sog'lig'ingizga g'amxo'rlik qilishingiz kerak edi.
- 288) U mollarni zudlik bilan yuklashi kerak edi.
- 289) Biz bu imkoniyatdan foydalanishimiz kerak edi.
- 290) Biz hammamiz ularni ko'rishdan xursand edik.
- 291) Men biror narsa deyishga hayron edim.
- 292) Uning aktyor bo'lish xohishi katta edi.
- 293) Bu haqda menga zudlik bilan xabar qilish sizning burchingiz edi.
- 294) Unda hali ham u yerga borish istagi kuchli edi.
- 295) Uning sayohat qilishga istagi juda baland edi.
- 296) Bu yarashishga tomon birinchi qadam edi.
- 297) Uning uchun kelishning imkoni yo'q edi.
- 298) Mos paroxodni topish qiyin edi.
- 299) Annetning fransuz bo'lishi uni ozroq xafa qilishi mumkin edi.

- 300) Ertaga biror joyga boraman.
- 301) Men bir soatdan keyin kelaman.
- 302) Men bularni olaman.
- 303) Men unga ertaga xat yozaman.
- 304) Men bu oqshom uyd bo‘laman.
- 305) Men odatda beshinch nomerli tramvayda yuraman.
- 306) Men bu oqshom bo‘sh bo‘laman.
- 307) Men odatda soat yettida o‘rnimdan turaman.
- 308) Men kelasi jumada siz bilan uchrashaman.
- 309) Dushanbada men band bo‘laman.
- 310) Sizni ertaga ko‘ramanmi?
- 311) Men buni boshidan bilaman.
- 312) Men qaynoq sutdan sovuq sutni afzal bilaman.
- 313) Men u bilan gaplashaman.
- 314) Men odatda vaqtli uyg‘onaman.
- 315) Men sizga to‘liq qo‘shilaman.
- 316) Men sutni yoqtiraman.

- 317) Men ishimni soat beshdan oldin tugataman.
- 318) Men xatlarni zudlik bilan jo‘nataman.
- 319) Men shu sartaroshxonada soch oldiraman.
- 320) Men har kuni guruch yeypman.
- 321) Men buni otamdan so‘rayman.
- 322) Men ertalab yaxshi ishlayman.
- 323) Men uni bolaligimdan buyon taniyman.
- 324) Men gazetalarni kechqurun o‘qiymen.
- 325) Men Shahrisabzda yashayman.
- 326) Biz odatda o‘zbek tilida gaplashamiz.
- 327) Biz birga vaqtini yaxshi o‘tkazamiz.
- 328) Ko‘pincha darsdan so‘ng uyga birga ketamiz.
- 329) Biz hammamiz bu haqda bilamiz.
- 330) Biz vatanimizni sevamiz.
- 331) Biz birga kutubxonaga boramiz.
- 332) Akam bilan men sizga yordam beramiz.
- 333) Keling sohil bo‘ylab sayr qilamiz.

- 334) Xayr. Ertaga ko‘rishamiz.
- 335) Biz ko‘p xorijiy firmalarga xatlar jo‘natamiz.
- 336) Biz mamlakatimiz bilan faxrlanamiz.
- 337) Biz mamlakatimiz geografiyasini o‘rganamiz.
- 338) Biz har doim darslarga o‘z vaqtida kelamiz va uy vazifalarini yaxshi bajaramiz.
- 339) Biz sizning javobingizni soat beshgacha kutamiz.
- 340) Biz o‘z darsliklarimizni o‘qiymiz.
- 341) Biz Toshkentda yashaymiz.
- 342) Biz rudani kelasi hafta yuklaymiz.
- 343) Biz darsda juda ko‘p o‘qiymiz va juda kam yozamiz.
- 344) Odatda biz kechqurunlari dars tayyorlaymiz, biroq ko‘pincha yangi so‘zlarni ertalab darsdan oldin takrorlaymiz.
- 345) Ishdan so‘ng nima qilasiz?
- 346) U yerga siz borasizmi yoki akangiz?
- 347) Siz choyni yoqtirasizmi yoki kofeni?
- 348) Kechirasiz, siz nohaqsiz.
- 349) Siz o‘zbek tilida gapirasiz, shunday emasmi?

- 350) Nechta fan o‘rganasizlar?
- 351) Siz idorangizdan uzoqda turasizmi?
- 352) Siz uyda ovqatlanasizmi?
- 353) Odatda doskaga ko‘p gap yozasizmi?
- 354) Yakshanba kuni uyda bo‘lasizmi?
- 355) Biror narsa yeysizmi?
- 356) Bir chashka kofe xohlaysizmi?
- 357) Siz qayerda yashaysiz?
- 358) Ulardan ko‘pini siz taniysiz.
- 359) Uy ishingizga siz ko‘p vaqt sarflaysizmi?
- 360) Sen royal chalasanmi?
- 361) Sen nemis tilini yaxshi bilasanmi?
- 362) Sen kechki ovqatdan oldin sayrga chiqasanmi?
- 363) Sen, odatda, soat nechada nonushta qilasan?
- 364) Ishni, odatda, soat nechada tugatasan?
- 365) Sen yana qaysi bayramni yoqtirasan?
- 366) Sen ham sentabr oxirida qaytasanmi?

- 367) Sen do'stlarining tushlikka taklif qilasanmi?
- 368) Sen o'qituvching bilan inglizcha gaplashasanmi yoki o'zbekchami?
- 369) Qanchalik tez yurasan!
- 370) Sen ularga, odatda, ikki soat sarflaysan.
- 371) Sen ko'p shamollaysanmi?
- 372) U kishini taniysanmi?
- 373) Muzqaymoq xohlaysanmi?
- 374) Sen ko'p inglizcha kitoblar o'qiysanmi?
- 375) U tez orada ketadi.
- 376) U bu yerga ertaga ertalab keladi.
- 377) U nemis tilini qanchalik yaxshi biladi?
- 378) Mening do'stim ikkita chet tilini o'rghanadi.
- 379) Nega bola vrachdan qo'rqedidi?
- 380) Dekabrda tez-tez qor yog'adi.
- 381) U kasal ko'rindidi.
- 382) O'g'lingiz musiqani yoqtiradi, shundaymi?
- 383) Aytishlaricha ular xitoy tilini juda yaxshi biladilar.

- 384) Ular bu oqshom teatrga boradilar.
- 385) Ular qaysi gazetalarni o‘qishadi?
- 386) Ular bir-birlarini sevishadi.
- 387) Ular bir-birlarini ikki yildan buyon tanishadi.
- 388) Bu ovqatni, odatda, juda kichkina bolalarga berishadi, shundaymi?
- 389) Institutimiz talabalari chet tillarini o‘rganishadi.
- 390) U sakkizdan to‘rtgacha ishlaydi.
- 391) U ishidan keyin charchaydi.
- 392) Poyezd 6 da jo‘naydi.
- 393) U qanday yaxshi kuylaydi!
- 394) U suratni 1500 dollarga baholaydi.
- 395) U faqat o‘zi haqida o‘ylaydi.
- 396) O‘g‘lingiz qachon dars tayyorlaydi? – Kechqurun.
- 397) Suv selsiyda 100 daraja haroratda qaynaydi.
- 398) O‘zbekiston to‘qimachilik sanoatini paxta bilan ta’minlaydi.
- 399) Ba’zi mamlakatlarda kambag‘allar xarobalarda yashaydilar.

400) Men buni bilmayman.

401) U juda ko‘p o‘qimaydi.

402) Bir stakan suv ichmaysizmi?

403) Biz uni dushanbagacha ko‘rmaymiz.

404) Xotinim hozir ishlamaydi.

405) Siz hali ham mening do‘stimni tanimaysizmi?

406) Uning qayerdaligini bilmayman.

407) U nimani tushunmaydi?

408) Bu oqshom u bu yerga kelmaydimi?

409) Men uni deyarli ko‘rmayman.

410) Menga bu ruchka yoqadi, boshqalari yoqmaydi.

411) Bunga aqlim yetmaydi.

412) Ateist xudoga ishonmaydi.

413) Men seni anchadan beri ko‘rmayman, lekin sen 10 yil oldingidek yosh ko‘rinasan.

414) Do‘stingiz yaponcha gapirmaydi, shundaymi?

415) Yaxshisi men bu haqda ularga aytmayman.

- 416) Bu oqshom hech qanday majlis bo‘lmaydi.
- 417) Men buni hech qachon unutmayman.
- 418) U hech qachon leksiyaga kech qolmaydi.
- 419) Bu kishi hech qachon hech narsadan qo‘rmaydi.
- 420) Men bundan ajablanmayman.
- 421) Keling, oshxonaga o‘nta kam birda boramiz. Bu paytda u yerda odam uncha bo‘lmaydi.
- 422) Mening qornim unchalik och emas, bugun men sho‘rva olmayman.
- 423) Ular menga kitob va gazetalarni yuborishmaydi.
- 424) Ular bu xonadan foydalanishmaydi, shundaymi?
- 425) Salatda tuz yetishmaydi.
- 426) Kechirasiz, biroq Nosirlar endi bu yerda turishmaydi.
- 427) Biz Zilola bilan anchadan beri uchrashmaymiz.
- 428) Mening do‘stlarim ham shanba-yakshanba kunlari shahar chetiga borishmaydi, chunki ularning qizlari juda kasal.
- 429) Ba’zi odamlar go‘shtni yoqtirmaydilar.
- 430) Men o‘qishni sevaman.

- 431) Bu kitob o‘qishga arziydi.
- 432) U bolalari bilan o‘ynashni yaxshi ko‘radi.
- 433) Buni qanday bajarishni bilasizmi?
- 434) U har doim men kelishimdan oldin keladi.
- 435) Siz hammangiz muhokamada ishtirok etishni xohlaysizmi?
- 436) Men avtoruchka bilan yozishni yaxshi ko‘raman.
- 437) Singlim, odatda, unga darslarni tayyorlashda yordam beradi.
- 438) Siz ish tez kunda qilinishini xohlaysizmi?
- 439) Biz uni ko‘rishdan xursand bo‘lamiz.
- 440) Keling jo‘nashni ertagacha kechiktiramiz.
- 441) Men kichik o‘g‘limning rasm solishini kuzatishni yoqtiraman.
- 442) U nimaga qiziqadi? – Menimcha, baliq ovlashga.
- 443) Men uyga ketishda xarid qilaman.
- 444) Men ukamning o‘zbek tilini o‘rganishni boshlashini istayman.
- 445) Yana biror kishi muhokamada ishtirok etishni xohlaydimi?

- 446) Sizdan men bilan muloyimroq gaplashishingizni so‘rayman.
- 447) Bir necha kun ketishiga qaramasdan, men poyezdda boraman.
- 448) Men O‘zbekiston fuqarosi bo‘lishdan faxrlanaman.
- 449) Siz biz bu masalani bugun hal qilishimizni xohlaysizmi?
- 450) U uyiga kelishi bilan bu ishni qiladi.
- 451) U odatda soat 11 da uslashga yotadi.
- 452) Termometr haroratni o‘lchash uchun ishlataladi.
- 453) Siz biz bugun uchrashishimizni xohlaysizmi?
- 454) Ular kelishlari bilanoq biz muhokamani boshlaymiz.
- 455) Mening singlim ingliz tilida juda yaxshi gapiradi va o‘zining bolalarini inglizcha gapirishga o‘rgatadi.
- 456) U tarjimon bo‘lish uchun ispan tilini yetarlicha yaxshi biladi.
- 457) Bolalarni o‘qitish menga yoqadi.
- 458) Siz bolalar bu yerda o‘ynashini xohlaysizmi?
- 459) Ularning ko‘plari konki uchishni yoqtirishadi.
- 460) Men ertalab soat o‘nda ishlashni boshlayman.

- 461) Shaharning diqqatga sazovor joylarini ko‘rishni xohlaysizmi?
- 462) Men dengizda cho‘milishdan ko‘ra daryoda cho‘milishni yaxshi ko‘raman.
- 463) Men sizning baxtli bo‘lishingizni istayman.
- 464) Buni unga aytishingizni taqiqlayman.
- 465) U hamma pullarini yo‘qotish bilan tavakkal qiladi.
- 466) U kelasi yili maktabni tugatishni maqsad qiladi.
- 467) President inflatsiyani kamaytirishga harakat qiladi.
- 468) Uning ishimga aralashishi mening jahlimni chiqaradi.
- 469) Sizning bunday o‘ylashingiz meni afsuslantiradi.
- 470) U buni qilishga majbur bo‘ladi.
- 471) Menga ko‘pincha u yerga borishimga to‘g‘ri keladi.
- 472) Siz ham ertaga erta turishingizga to‘g‘ri keladimi?
- 473) Yaxshi ma’ruza qilish uchun men bu fan bo‘yicha ko‘p kitoblar o‘qishimga to‘g‘ri keladi.
- 474) Uning kasalligi tufayli, majlisni qoldirishimizga to‘g‘ri keladi.
- 475) Sizni hamma narsani shoshilinchda qilishga majbur qiladi.

- 476) Uni bunday og‘ir jomadonni ko‘tarishga majbur qiladi.
- 477) Sizni bu kishiga qo‘ng‘iroq qilishga majbur qiladi.
- 478) Bu ularni biznikiga tez-tez kelishga majbur qiladimi?
- 479) Bu bolalarni ertaroq turishga majbur qiladimi?
- 480) Men qayerga borishni bilmayman.
- 481) Nimaga sen unga telefon qilishni xohlamaysan?
- 482) Men u yerga kuzda va bahorda borishni yoqtirmayman.
- 483) Men shahar tashqarisiga chiqishni umuman xohlamayman.
- 484) Men uning qayerda yashashini bilmayman.
- 485) Men bu masala mensiz hal qilinishini xohlamayman.
- 486) Men ularning qaysi biri ruscha gapirishini bilmayman.
- 487) Men uning mакtabni tashlashini tushunmayman.
- 488) Shifokor menga tushlikdan so‘ng dam olishni maslahat bermaydi.
- 489) Men umuman suzishni bilmayman.
- 490) U xat yozishni yoqtirmaydi.
- 491) Grammatik qoidalarni takrorlashni u yoqtirmaydi.

- 492) Men piyoda yurishimizga e'tiroz bildirmayman.
- 493) Men bu tomoshani ko'rishga qiziqmayman.
- 494) Uning javobi qanday bo'lishini hech kim hech qachon bilmaydi.
- 495) Men mashinada uzoq yurishni yoqtirmayman.
- 496) Men, siz Akbarni himoya qilishingizni xohlamayman.
- 497) Bu yerda chekishga ruxsat etilmaydi.
- 498) Ular ham quyoshda toblanishni yoqtirishmaydi.
- 499) Bu oqshom u mening u yerga borishimni istaydi, lekin men borishni istamayman.

- 500) Men inglizcha gapira olaman.
- 501) U nemischa o‘qiy oladi.
- 502) Siz hozir unga telefon qila olasizmi? – Afsuski, yo‘q.
- 503) Men uni hozir qila olaman.
- 504) Siz menga yordam bera olasizmi? – Albatta.
- 505) Qachon bo‘shashingizni bizga ayta olasizmi?
- 506) U ishini kelasi hafta tugata oladi.
- 507) Buni keyin qila olamiz.
- 508) Siz bu masala bo‘yicha menga maslahat bera olasizmi?
- 509) Bolalar buni tushuna oladilar.
- 510) Biz qachon o‘zbek tilidagi kitoblarni o‘qiy olishimizni ayta olasizmi?
- 511) Buni uning o‘zi qila oladi.
- 512) Men buning to‘g‘riligini har doim isbotlay olaman.
- 513) Siz buni qilishga menga yordam bera olasizmi?
- 514) Men hozir mutlaqo bo‘shman va siz bilan kinoga bora olaman.
- 515) Bu gapni kim tarjima qila oladi?

- 516) Bu avtobusda Mustaqillik maydonigacha bora olamanmi?
- 517) Siz ertaga kechqurun kela olasizmi? – Afsuski, ilojim yo‘q.
- 518) Siz u yerga metroda bora olasiz.
- 519) Siz bu maqolani lug‘atsiz tarjima qila olasizmi?
- 520) Umid qilamanki, siz ularni baxtli qila olasiz.
- 521) Sizlardan qaysi biringiz ertaga ertalab kinoga bora olasiz?
- 522) Savolimga kim javob bera oladi?
- 523) Do‘stingiz inghzcha gapira oladi, shunday emasmi?
- 524) Masala ular bizga yordam bera oladilarmi yo‘qmi shunda.
- 525) Sizlar bu savollarni dushanba kuni ertalab muhokama qila olasizlarmi?
- 526) Men siznikiga yana qachon kela olishimni bilmayman, men hozir juda bandman.
- 527) Bu ishni bajarishda menga kim yordam bera olishini bilmayman.
- 528) Nahotki siz biz bilan shahar chetiga bora olmaysiz?
- 529) Men buni hozir qila olmayman, chunki juda bandman.
- 530) U soat beshgacha ishini tugata olmaydi.

- 531) Men buni sizning yordamingizsiz bajara olmayman.
- 532) Biz Layloni boshqa kuta olmaymiz.
- 533) Bu yerga o‘tira olmaysiz.
- 534) Men uning nima uchun kechikishini tushuna olmayman.
- 535) Bu ruchka yomon. Men u bilan yoza olmayman.
- 536) Men ham uni esimdan chiqarolmayman.
- 537) Men hech nima qo‘sholmayman.
- 538) U o‘z vaqtida keladimi yo‘qmi, men sizga aytolmayman.
- 539) Hech narsa ularni fikrini o‘zgartirishga majbur qilolmaydi.
- 540) U yettida qaytib keladi.
- 541) Ko‘chadan to‘g‘ri borib, keyin chapga burilasiz.
- 542) Ehtimol u ertaga yetib keladi.
- 543) Men buni o‘ylab ko‘raman.
- 544) Akangiz dushanba kuni yetib keladimi?
- 545) U bizni stansiyada kutib oladi.
- 546) Men ertaga siznikiga kirib o‘taman.
- 547) Menga tuzni uzatib yuborasizmi?

- 548) Men sizga yana bitta qo'shiq aytib beraman.
- 549) Men bu xususida muhandislarimiz bilan gaplashib ko'raman.
- 550) Biz vokzalga o'z vaqtida yetib boramiz.
- 551) Ular mollarning may oyida yetkazib berilishini istaydilar.
- 552) U bir necha kun ichida Toshkentga qaytib keladi.
- 553) Men xatlarni tezda jo'nattirib yuboraman.
- 554) U qaytib kelishi bilanoq men sizga telefon qilaman.
- 555) Men soat o'ngacha maqolani tarjima qilib bo'laman.
- 556) Bu palto eskisidan ko'ra issiqroq va men uni kiyib olaman.
- 557) Keling, unda kunini kelishib olamiz. Shanbami yoki yakshanbami?
- 558) Siz tez orada sog'ayib ketishingizga ishonaman.
- 559) U yerga yetib borish uchun qancha vaqtingiz ketadi?
- 560) O'rinalariga yetib boriboq, hamma qattiq uqlab qoladi.
- 561) Hamma imtihonlarni topshirib bo'liboq men shahardan tashqariga ketaman.
- 562) Men sizni aeroportda kutib olishni uyushtiraman.

- 563) Men sizga kitobni dushanba kuni qaytarib berish sharti bilan berib turaman.
- 564) O‘g‘lingizni shunaqa g‘alati ismi borki, men uni hech eslab qola olmayman.
- 565) Bu ishni shoshma-shosharlik bilan qilib bo‘lmaydi.
- 566) Nega gazetada e’lon berib sinab ko‘rmaysiz?
- 567) Men undan ular qayerda yashashlarini bilib kelishni so‘rayman.
- 568) Men bir necha kun kutish kerak deb o‘ylayman.
- 569) U hozir uyda emas deb qo‘rqaman.
- 570) Ketishimizdan oldin sendan xat olaman, deb umid qilaman.
- 571) Menda bir nechta inglizcha kitoblar bor, biroq, ular sizga juda og‘irlilik qiladi, deb o‘ylayman.
- 572) Bizning uy ko‘rdimizga ikkovingiz kelasiz, deb umid qilaman. – Bajon-u dil.
- 573) Bu masalani siz o‘zingiz muhokama qilasiz, deb umid qilaman.
- 574) Men bu Ziyodani o‘z rejasini o‘zgartirishga majbur qiladi, deb o‘ylayman.
- 575) U mashhur film yulduzini taniyman deb da’vo qiladi.

- 576) Bu kitob siz uchun yetarlicha qiziq deb o‘ylayman.
- 577) Men bu sizni o‘sha kitobni yana o‘qishga majbur qiladi, deb o‘ylayman.
- 578) Men u keladi deb umid qilishni davom ettiraman.
- 579) O‘shangacha ish topaman deb umid qilaman.
- 580) Qanday ahmoqona xato qilibman!
- 581) Hozir u chiroyli, keng ko‘cha bo‘lib ketibdi.
- 582) Men daftaramni sinfda unutib qoldiribman.
- 583) Kechirasiz, men bu matnni tarjima qilishni unutibman.
- 584) Mening kitobimni kimdir olibdi.
- 585) Men soyabonimni allaqayerda qoldiribman.
- 586) Sho‘rvamga soch tushibdi.
- 587) Menimcha, men ruchkamni shu yerda qoldiribman.
- 588) Rustam uni menga jo‘natibdi.
- 589) Derazani yopishni unutibman.
- 590) U men institutdaligimda menikiga kelibdi.
- 591) U o‘zinkini olishni unutibdi.

592) Men o‘zimnikini uyda qoldiribman.

593) Mening soatim to‘xtab qolibdi.

594) Siz diktantda ko‘p xatolar qilibsiz.

595) U meni kun bo‘yi ishlaydi deb o‘ylabdi.

596) O‘ylashimcha, shamollab qolibman.

597) Hali soat yetti bo‘lmabdi.

598) Men ham uni ko‘rmabman.

599) Afsus, siz o‘zingiz bilan o‘g‘illaringizni olib kelmabsiz.

- 600) Mening uyim yonida teatr kassasi joylashgan.
- 601) Qaysi romanda u o‘zining bolaligini tasvirlagan?
- 602) Menimcha, u ko‘p sayohat qilgan.
- 603) Senga shunday tuyulgandir.
- 604) Uylanganmisiz? / Turmushga chiqqanmisiz?
- 605) Siz “Italian san’ati tarixi”ni o‘qigansiz, shundaymi?
- 606) Mening mototsiklim bor, biroq mening hech qachon mashinam bo‘lmagan.
- 607) Men u haqda eshitmaganman.
- 608) Bunaqa markani hech qachon ko‘rmaganman.
- 609) Men ulardan chipta buyurishlarini so‘ramaganman.
- 610) Buni hech kim ko‘rgan emas.
- 611) Bu haqda menga hech kim aytgan emas.
- 612) Xatning mazmuni o‘zgartirilgan emas.
- 613) U hali Samarqanddan qaytib kelgan emas, shunday emasmi?
- 614) Men keyingi paytlarda u yerda bo‘lgan emasman.
- 615) U hali bu filmni ko‘rgani yo‘q. – Men ham.

- 616) Biz bu haqda hech narsa o‘qiganimiz yo‘q.
- 617) U 1996-yilda Toshkentdan ketgan va men uni o‘shandan buyon ko‘rganim yo‘q.
- 618) Mening hech jahlim chiqqani yo‘q.
- 619) Men hali uning kelganini eshitganim yo‘q.
- 620) Ertaga mening tug‘ilgan kunim.
- 621) Qalamda yozilgan xatni o‘qish qiyin.
- 622) Devorda osilgan surat Repin tomonidan chizilgan.
- 623) Bu bizga kerakli bo‘lgan narsaning xuddi o‘zi.
- 624) Mening o‘ylashimcha, u sizning onangizga yordam berishi mumkin bo‘lgan bizning shahrimizdagi yagona shifokor.
- 625) Siz bilan tanishganididan xursandman.
- 626) Siz bu hikoyani biz o‘tgan haftada o‘qiganimizga nisbatan qiziqarsizroq deb o‘ylaysizmi?
- 627) Men bu filmni ko‘rmaganididan juda ham afsusdaman.
- 628) Aka-ukalar siz o‘ylaganingizdan boshqacharoq.
- 629) Na men va na mening singlim bu aktrisani Katerinaning rolini o‘ynaganini ko‘rmaganmiz.
- 630) Uning singlisini parkda uchratgan menman.

- 631) Juda kech kelgandan ko‘ra, juda erta kelgan yaxshi.
- 632) U hali kelmagan bo‘lishi mumkin.
- 633) Agar u shu yerda bo‘lganda edi, u bizga yordam bergen bo‘lishi mumkin edi.
- 634) Bu kitob o‘tgan hafta o‘qiganimizga qaraganda qiziqroq.
- 635) Sen juda charchagan ko‘rinasan.
- 636) Buning qanday sodir bo‘lgani hech kimga aniq emas.
- 637) Uning kelmaganligi men uchun g‘alati.
- 638) Kitob men o‘ylaganimdek qiziq emas.
- 639) Aytishlaricha, u o‘zining birinchi pyesasini taxminan 15 yoshligida yozgan ekan.
- 640) Bo‘g‘madan keyin Farhod holdan toygan va ruhi tushgan edi.
- 641) Shamol ko‘tarilganda, biz allaqachon sohilga eson-omon yetib olgan edik.
- 642) Unga do‘sti qo‘ng‘iroq qilganda, u ketishga hozirlanib turgandi.
- 643) Men umuman teskarisini o‘ylagandim.
- 644) Ular bizni olib borib qo‘yishlarini biz kutmagandik.

- 645) Siz sog‘ayayotganingizdan men juda xursandman.
- 646) Mening oldimga kelib nimaga yig‘layotganimni so‘rashadi.
- 647) U o‘zini yaxshiroq his qilayotganini o‘zim so‘rayman.
- 648) U ta’tilni rasvo o‘tkazayotganligini yozadi.
- 649) Do‘stimning otasi yetmish yoshlar atrofida, biroq u hali ham ishlaydi va o‘z ishidan katta bahra olayotganligini aytadi.
- 650) Siz o‘tgan yili bu paytda sayohat qilayotgan edingiz, shundaymi?
- 651) Akam kelganida men uzoq vaqt ishlayotgan edim.
- 652) Men uydan chiqqanimda yomg‘ir yog‘ayotgan edi.
- 653) Men uydan chiqqanimda yomg‘ir ikki soat davomida yog‘ayotgan edi.
- 654) U kelganda mehmonlar hali ham raqsga tushayotgan edilar.
- 655) Uning tishi qattiq og‘riyotgan ekan.
- 656) Biz aeroportga kelganimizda samolyot qo‘nayotgan ekan.
- 657) Aytishlaricha u yangi pyesa yozayotgan ekan.
- 658) U professor Ivanov bilan gaplashayotgan ekan.
- 659) Men kelganda ular tushlik qilishayotgan ekan.

- 660) Mana siz izlayotgan kitob.
- 661) Mana biz yashayotgan uy.
- 662) Men hozir o‘qiyotgan kitob unchalik qiziqarli emas ekan.
- 663) Siz gapirayotgan kishini bilaman.
- 664) Deraza oldidagi stolda nimadir yozayotgan odam mening akam.
- 665) Hozir o‘qiyotgan kitobingiz sizga yoqadimi?
- 666) Sigareta chekayotgan kishi mening akam.
- 667) Ko‘chamizda qurilayotgan katta bino yangi maktab binosidir.
- 668) Undagi ma’lumotlar men hozir ustida ishlayotgan kitob uchun juda qiziqarli va muhim.
- 669) Siz hech qachon yurib ketayotgan tramvaydan tushmasligingiz kerak.
- 670) Men ertaga kun bo‘yi o‘qiyotgan bo‘laman.
- 671) Butun oqshom yomg‘ir yog‘ayotgan bo‘ladi.
- 672) Men soat uchdan beshgacha kutubxonada ishlayotgan bo‘laman.
- 673) Men uy ishimni qilayotganimda u dam olayotgan bo‘ladi.

- 674) U nonushta qilayotganida men gazetani o‘qiyotgan bo‘laman.
- 675) Men may oyida imtihonimga tayyorlanayotgan bo‘laman.
- 676) Iyunda u firma bug‘doy sotib olish haqida muzokaralar olib borayotgan bo‘ladi.
- 677) U ertaga soat ikkida kela olmaydi, chunki o‘sha paytda u dars berayotgan bo‘ladi.
- 678) 2014-yil birinchi mayda u zavodda yigirma yil ishlayotgan bo‘ladi.
- 679) Suv qaynayotganga o‘xshaydi.
- 680) Bugun qiladigan ishingiz ko‘pmi?
- 681) Termometr – haroratni o‘lchash uchun ishlatiladigan asbob.
- 682) Bu men aytadigan narsaning deyarli hammasi.
- 683) Menda boshqa qo‘sishimcha qiladigan narsa yo‘q.
- 684) Menda sizga ko‘rsatadigan hech narsa yo‘q.
- 685) Menga kastumga mos tushadigan galstuk kerak.
- 686) Men uyga eng kech keladigan kunlarim dushanba kunlaridir.
- 687) Mana otasi xorijiy kompaniyada ishlaydigan talaba.
- 688) Bular siz noto‘g‘ri talaffuz qiladigan so‘zlardir.

- 689) Mening sizga aytadigan gapim bor.
- 690) U yashaydigan uy juda katta.
- 691) Bu men siz uchun qila oladigan ishning hammasi.
- 692) Sizda og‘riqni qoldiradigan dori bormi?
- 693) Marhamat, mana bu ro‘yxatda bojsiz keltiriladigan narsalarning miqdori belgilangan.
- 694) Oltin sof holda topiladigan ozchilik metallardan biri.
- 695) Menimcha, u 7.30 da ketadigan poyezdga ulgurishni xohlagan edi.
- 696) Neft mahsulotlarini tashish uchun quriladigan kemalar tankerlar deb ataladi.
- 697) Bu davolanmaydigan tish. Uni oldirib tashlash kerak.
- 698) Chidab bo‘lmaydigan issiq!
- 699) Yomg‘ir yog‘adiganga o‘xshaydi.

- 700) Balki hammasini uning o‘zi tushuntirar.
- 701) Men, balki, unikiga bugun kechqurun borarman.
- 702) Siz royalni juda yaxshi chalarkansiz.
- 703) Qiziq, men uni ko‘rganimda tanirmikanman.
- 704) Qiziq, men yana qachon ma’ruza tayyorlashim kerak bo‘larkin.
- 705) Qiziq, akangiz yana qachon Tokioga kelarkin?
- 706) Uy daryo bo‘yida turar edi.
- 707) Siniq piyola stolda yotardi.
- 708) U Zilolaning kelgusi haftada kelishini bilar edi.
- 709) Juda charchagan ekanman. Men ko‘zlarimni ochib turishga harakat qilardim lekin bu qo‘limdan kelmasdi.
- 710) Suv bolalarga cho‘milish uchun juda sovuqlik qilardi.
- 711) O‘tgan qishda men ko‘p vaqtimni kutubxonada o‘tkazardim.
- 712) Agar u uning ofisiga soat beshda borganda, uni u yerdan topar edi.
- 713) Agar u harakat qilganda, buni qila olgan bo‘lar edi.

- 714) Londonda ko‘p yillar yashagani sababli, u bu shaharni juda yaxshi bilardi.
- 715) Quyosh botardi, qorong‘i tushardi va yomg‘ir yog‘adiganga o‘xshardi.
- 716) U Toshkentdaligida ko‘pincha har oqshom biznikiga kelib turar edi.
- 717) Ingliz tilini yaxshi bilgani uchun u gazeta maqolalarini lug‘atsiz tarjima qila olardi.
- 718) Stol ustida bir chiroq osilib turar edi.
- 719) U hamma vaqt ayol degan sirli mavjudotga qiziqardi.
- 720) O‘zbek xalqi yengilmas.
- 721) Afsus, siz biz bilan borolmas ekansiz.
- 722) Qiziq, nimaga ayrim bolalar sutni yoqtirmas ekanlar?
- 723) Shamol qayiqni ag‘darib yubormasmikan, deb qo‘rqaman.
- 724) U uyda ovqatlanmasdi.
- 725) Hech kim bu haqda bilmasdi.
- 726) Bolaligimda men ko‘p kasal bo‘lardim va shuning uchun shovqinli o‘yinlarni yoqtirmas edim.
- 727) Men oxirgi o‘yin durang bilan tugaganini bilmasdim.

- 728) Men ularning spektakllarini ko‘rish imkoniyatini hech qachon qo‘ldan chiqarmasdim.
- 729) U kelishi ham, kelmasligi ham mumkin.
- 730) Men nazorat ishida xato qilmaslik uchun bu qoidalarni yod olmoqchiman.
- 731) Men o‘zim undan ertaga bu jurnal unga kerak bo‘lishi yoki kerak bo‘lmasligini so‘rayman.
- 732) Ma’ruza juda qiziqarli bo‘ladi va men siz uni tinglay olmasligingizdan afsusdaman.
- 733) Sizni sport bilan shug‘ullanmasligingiz juda qiziq.
- 734) Men sizni hayajonlanmasligingizni xohlayman. Hammasi joyida bo‘ladi.
- 735) Kechirasiz, men sizga 12 da kelmasligingizni aytishni unutibman.
- 736) Uning o‘z xatosini tushunmasligi meni ajablantiradi.
- 737) Kechikmaslikka va’da beraman.
- 738) Buni bilmaligingiz meni afsuslantiradi.
- 739) Hujjatlarning ertaga yetib kelish-kelmasligi noma’lum.
- 740) U kutib turmasligi uchun men unga zudlik bilan qo‘ng‘iroq qilaman.

- 741) U yetib kelar-kelmasdan, jo‘nashni istab qoladi.
- 742) Siz grammatikani o‘rganmasdan hech qachon o‘zbek tilini yaxshi gapira olmaysiz.
- 743) Men sizga bu haqda aytmasdan turolmayman.
- 744) Men bu haqda tashvishlanmasdan turaolmayman.
- 745) Men shirinlikni yemasdan turolmayman.
- 746) Men sizga uch kundan kechiktirmasdan javob beraman.
- 747) U ingliz tilida birorta ham xato qilmasdan gapira oladi.
- 748) Ular bog‘lovchi so‘zlarga o‘xshab faqatgina ergash gaplarni bosh gaplar bilan bog‘lab qolmasdan, ergash gaplarda gap bo‘lagi ham bo‘lib keladi.
- 749) Narxlar qimmat bo‘lishiga qaramasdan biz mening maoshim bilan tirikchilikni o‘tkazishga muvaffaq bo‘lamiz.
- 750) U kitob o‘qiyapti.
- 751) Men xat yozyapman.
- 752) Anavi xonada hozir kim ishlayapti?
- 753) U hozir qanaqa mashqlarni bajaryapti?

- 754) U hozir qaysi tilda gapiryapti?
- 755) Sizning shahringizda ko‘p uylar qurilyaptimi?
- 756) Ular hali ham bizni kutishyapti, shundaymi?
- 757) Nimaga siz bunaqa past ovozda gapiryapsiz?
- 758) Sen meni eshityapsanmi?
- 759) Sizlardan qaysi biringiz koreys tilini o‘rganyapsiz?
- 760) O‘qituvchilar bu bolani juda qobiliyatli deyishyapti.
- 761) O‘qituvchingiz bilan hozir kim gaplashyapti?
- 762) U hali ham uxlayapti.
- 763) U nima so‘rayapti? – U yangi jurnal so‘rayapti.
- 764) Ular xiyobonda konki uchishyapti.
- 765) Siz juda tez yurayapsiz.
- 766) Menga ular o‘zimnikidan ham ko‘proq yoqyapti.
- 767) Siz osmonda samolyot ko‘ryapsizmi?
- 768) Soat uchdan buyon yomg‘ir yog‘ayapti.
- 769) Biz beshinchi matnni ko‘chirib yozyapmiz.
- 770) Sizga bizning ob-havo qanday yoqyapti?

- 771) Osmon yorishayapti; yomg‘ir bir ozdan keyin to‘xtaydi.
- 772) Hozir biz juda oz inglizcha kitoblar o‘qiyapmiz.
- 773) Bugun qizim o‘zini yomon his qilyapti.
- 774) Bu yer isib ketyapti.
- 775) Siz, odatda, yaxshi o‘qirdingiz, biroq hozir juda yomon o‘qiyapsiz.
- 776) Biz yozda u yerga borishni o‘ylayapmiz.
- 777) U firma ruda sotib olish haqida muzokaralar olib boryapti.
- 778) Hamma bu teatrimizdagи eng yaxshi pyesalardan biri ekanligini aytyapti.
- 779) Mening tishim juda yomon og‘riyapti.
- 780) Siz anchadan beri kutayapsizmi?
- 781) Men siznikiga kela olmayman, chunki o‘zimni yomon his qilyapman.
- 782) 36-betdagи masalalarni yechayapsizlarmi?
- 783) Biz yettinchi darsni o‘rganayapmiz.
- 784) Men hozir chiqyapman.
- 785) Men hozir darsga borayapman.

- 786) Ular bu oqshom teatrga borayaptilar.
- 787) Nimaga sen bunchalik xafasan? Sen butunlay ketmayapsan-ku, shundaymi?
- 788) Hozir men odatdagidan erta turyapman, chunki otam va aka-ukalarim uchun nonushta tayyorlashimga to‘g‘ri kelyapti.
- 789) Mening singlim yangi kvartiraga ko‘chib o‘tyapti va men unga yordam berishimga to‘g‘ri keladi.
- 790) Men hozir uyga avvalgidek kech kelmayapman.
- 791) Nimaga hech biringiz qulq solmayapsiz?
- 792) Afsus, uning otasi tuzalmayapti.
- 793) Men bu matnni yaxshi tarjima qila olmayapman.
- 794) Nimaga siz mashg‘ulotlarga bormayapsiz? – Men grippman.
- 795) Quyosh charaqlamayapti, juda sovuq va qor yog‘ishi mumkin.
- 796) Menga bu chamadon yoqmayapti.
- 797) Bu nusxa ko‘chirish mashinasi yaxshi ishlamayapti.
- 798) Men oltinchi masalani yecha olmayapman.
- 799) Men lug‘atimni hech qayerdan topa olmayapman.

- 800) U soat beshda keldi.
- 801) Men kecha kun bo‘yi o‘qidim.
- 802) Biz taxminan yigirma minutlar kutdik.
- 803) Kecha biror joyga bordingizmi?
- 804) U menga yaxshi maslahat berdi.
- 805) Butun oqshom yomg‘ir yog‘di.
- 806) Uning boshi qattiq og‘ridi.
- 807) Men uchinchi qatorda o‘tirdim.
- 808) U bu semestrda olti marta kechikdi.
- 809) Men derazani ochdim.
- 810) Biz aeroportga o‘z vaqtida keldik.
- 811) Majlisda yuzlab talabalar qatnashdilar.
- 812) Men shu kunlarda u bilan gaplashdim.
- 813) Minglab kishilar namoyishga chiqdilar.
- 814) U pulining ko‘p qismini kitoblarga sarfladi.
- 815) Kecha tunda siz biror joyga bordingizmi?
- 816) Men bu kitob uchun lug‘atga qaraganda ikki marta kam pul to‘ladim.

- 817) U ham muhokamada faol ishtirok etdi.
- 818) Men bu masaladagi eng so‘nggi axborotni oldim.
- 819) U mening oldimga keldi va vaqtini so‘radi.
- 820) Kecha men soatimni tuzatdim.
- 821) Kecha men sochimni oldirdim.
- 822) Ma’ruzadan so‘ng ko‘p savollar berildi.
- 823) Qog‘oz pichoq bilan kesildi.
- 824) Professor kasalligi sababli, leksiya qoldirildi.
- 825) Ular bu yerda kech soat beshlar chamasida bo‘lishdi.
- 826) Ular, odatdagidek, erta yo‘lga otlanishdi.
- 827) Ular sizga ma’ruzangiz haqida biror nima deyishdimi?
- 828) Ularning hammalari majlisda so‘zga chiqishdimi?
- 829) Ular konsertga taklif qilinishdi.
- 830) Biz kecha kechki ovqatni uyda yemadik.
- 831) Menga bu ruchka yoqmadi.
- 832) Buni men qilmadim.
- 833) Biz bugun uzoq yurmadik.

- 834) Nima uchun siz u bilan gaplashmadingiz?
- 835) Siz hali bo‘shamadingizmi?
- 836) Men qutini ochdim va uning ichida hech narsani ko‘rmadim.
- 837) Ular kechki ovqatdan keyin, hech qayerga borishmadi.
- 838) Kechirasiz, men hali sizga xotinimni tanishtirmadim.
- 839) Afsus, o‘shandan beri bu yozuvchi hech narsa yaratmadi.
- 840) Men kimningdir ruchkasini topib oldim.
- 841) Birinchi bor meni besh yoshligimda teatrga olib borishdi.
- 842) Siz bu kitobni allaqachon o‘qib chiqdingizmi?
- 843) Biz soat beshgacha maqolani tarjima qilib bo‘ldik.
- 844) Afsuski, bugunga hamma chiptalar sotib bo‘lindi.
- 845) Bu jurnalni kim bu yerda unutib qoldirdi?
- 846) Gid ularga ular haqida ko‘p qiziqarli narsalarni aytib berdi.
- 847) Siz qachon Namanganga ko‘chib o‘tdingiz?
- 848) Keyingi kuni matroslardan biri dengizda qanaqadir qora narsani ko‘rib qoldi.
- 849) Men tungi ikkida uyg‘onib ketdim va soat to‘rtgacha u xlabel olmadim.

- 850) Yozning oxirigacha biz o‘zbekcha gapirishni o‘rgandik.
- 851) Unga u yerga borishga ruxsat berishdi.
- 852) U mollarning zudlik bilan yuklanishini tavsiya qildi.
- 853) Ular u yerga borishga majbur bo‘lishdi.
- 854) Uning o‘zini bunday tutishi meni hayron qoldirdi.
- 855) Men undan uni qayerda kutishim kerakligini so‘radim.
- 856) Ular bizga yordam berishga rozi bo‘lishdi.
- 857) Men seshanba kuni jo‘nashga qaror qildim.
- 858) Sotuvchilar to‘lojni besh kun ichida amalga oshirishni talab qilishdi.
- 859) Nihoyat u unga turmushga chiqishga rozi bo‘ldi.
- 860) U menga uchta chet tillarini bilishini aytdi.
- 861) Dushanbada men band bo‘lishimni aytdim.
- 862) Menga uning har doim o‘z va’dasini bajarishini aytishdi.
- 863) U qachon ishdan kelishini sizga aytdimi?
- 864) U bizga stansiya tomonga borishimizni aytdi.
- 865) Doktor menga bu dorilarni ichishni aytdi.

- 866) Unga ko‘proq shug‘ullanishni aytishdi.
- 867) U menga shovqinni to‘xtatishni aytdi.
- 868) Men unga xatni jo‘natishni aytdim.
- 869) Men unga bir necha marta chekishni tashlashni aytdim,  
lekin u tashlamadi.
- 870) U bizdan qaysi birimiz xitoy tilida gapirishni bilishimizni  
so‘radi.
- 871) Ular mendan bu kitoblardan qaysilarini olishni xohlashimni  
so‘rashdi.
- 872) Undan bu suratlardan qaysi birini olishni xohlashini  
so‘rashdi.
- 873) Bizdan maktabimizda fransuz tili o‘tilishini so‘rashdi.
- 874) Ular mendan qanaqa kitoblarni o‘qishni yoqtirishimni  
so‘rashdi.
- 875) U biz bilan borishini so‘radi.
- 876) Nima uchun biror kishidan yordam berishini so‘ramadingiz?
- 877) Muallima bolalardan tinch o‘tirishlarini so‘radi va sinfdan  
chiqdi.
- 878) Undan hozirgina bu ishda qatnashishini so‘rashdi.
- 879) Biz haydovchidan tezroq yurishini so‘radik.

- 880) Ular mendan u nimaga kutubxonaga bormasligini so‘rashdi.
- 881) Bemor operatsiya og‘rimaydimi, deb so‘radi va shifokor unga hech qanday og‘riq sezmasligini aytib, tinchlantirdi.
- 882) Yangilik shunchalik noxush ediki, u o‘sha kechasi hech kimni ko‘rishni istamasligini aytdi.
- 883) O‘rtog‘im menga qo‘ng‘iroq qilib, kasal ekanligini va darsga kela olmasligini aytdi.
- 884) U ulardan o‘sha ishda qatnashish-qatnashmasliklarini so‘radi.
- 885) Undan tezda qaytib kelish-kelmasligini so‘raganlarida, u uch oylar ketishini aytdi.
- 886) U bu ishni bajara olmasligini aytdi, chunki uning vaqt yo‘q.
- 887) Biz ma’ruzachidan bunchalik tez gapirmasligini so‘radik.
- 888) U o‘z do‘stidan uni uyg‘otmaslikni so‘radi.
- 889) U ashula aytishga uni boshqa majburlamasliklarini so‘radi, chunki u juda charchadi.
- 890) Men hammasi yaxshi tugaganini eshitdim.
- 891) Laylo mening xonaga kirganimni payqamadi.
- 892) Unga qarab, men uning jahli chiqqanligini tushundim.
- 893) U bizga ob-havo o‘zgarmaganligini aytdi.

- 894) Men uni bu g‘alati yangilikka ishonganidan ajablandim.
- 895) U nimaga biz uyga shoshayotganimizni so‘radi.
- 896) Ulardan nimaga ketishga shoshilayotganlarini so‘rashdi.
- 897) Doktor yozishni to‘xtatdi va bemordan u o‘zini qanday his qilayotganligini so‘radi.
- 898) Men sizning Osakadan ketayotganingizni eshitdim.
- 899) Ular ertaga o‘z ona shaharlariga ketishayotganliklarini menga aytishdi.

- 900) Siz biz bilan ovqatlangani borasizmi?
- 901) U do'stini kutib olgani uyning tashqarisiga chiqdi.
- 902) U mendan o'qigani kitob so'radi.
- 903) Bu kecha akasi bizni ko'rgani kelgan qizdir.
- 904) Kechki ovqatini yedi, gazeta o'qidi va uxlagani yotdi.
- 905) Siz menga o'qigani bergen kitob juda qiziqarli ekan.
- 906) Biz eshik taqillaganini eshitdik va men uni ochgani bordim.
- 907) U ertaga kechqurun meni ko'rgani kelyapti.
- 908) Bir partiya shaxmat o'ynagani vaqtingiz bormi?
- 909) Mening marka sotib olgani vaqtim bo'lindi.
- 910) Biz uni ko'rgani kelishimizni aytdik.
- 911) U o'z do'stidan xarid qilgani usiz bormaslikni so'radi.
- 912) Keling, ertaga diqqatga sazovor joylarni ko'rgani boramiz.
- 913) Biz bilan xayrashgani yana kim kelmoqchi edi?
- 914) Siz biror kun biznikiga tushlik qilgani kelishingiz kerak.
- 915) U ma'ruza o'qiganda uni tinglagani doim ko'p odam keladi.
- 916) Seni ko'rgani kelganimda bu kitobni olib kelaman.

- 917) Bir kuni men uni ko‘rgani kelganimda u kasalga o‘xshab ko‘rindi.
- 918) Sen meni ko‘rgani kelganingda men ishlayotgan bo‘laman.
- 919) Biz dengizga dam olgani borganimizda, har kuni u yerda cho‘milamiz va oftobda toblanamiz.
- 920) Chiroqni o‘chirgach u xonadan chiqdi.
- 921) Undan institutni tamomlagach qayerda ishlashini so‘rashdi.
- 922) Men imtihonlarimni topshirgach qishloqqa boraman.
- 923) Oradan besh yil o‘tgach, u daraxt bo‘ldi.
- 924) Mollar quritilib hamda navlarga ajratilgach omborga joylandi.
- 925) Hal o‘zining daromad solig‘ini hisoblab chiqara olmagach, hisobchi bilan uchrashishga qaror qildi.
- 926) Eridan sado chiqmagach, chuqur so‘lish oldi.
- 927) Yomg‘ir tinmagach, biz kinoga bordik.
- 928) Qaynayvermagach olovni kuchaytirdi.
- 929) Shamol tinavermagach, tog‘ga chiqishni qoldirdi.
- 930) U kerakli joyini topgunicha kitob o‘qishda davom etdi.
- 931) Biz gazetani dars boshlanguncha o‘qishimiz mumkin.

- 932) Siz bizning institutimizga kelguncha qaysi zavodda ishlagansiz?
- 933) Siz bu jurnallarni o‘qishingiz mumkin, toki men xat va telegrammalarni ko‘rib chiqqunimcha.
- 934) Ish boshlanguncha bizning gazeta o‘qish va chekib olish uchun biroz vaqtimiz bor edi.
- 935) Mollarni tekshirib bo‘lishmaguncha men bojxonada turaman.
- 936) Men siz qaytib kelmaguningizgacha shu yerda bo‘laman.
- 937) U og‘riq sezilmay qolguncha yotdi.
- 938) Ular qishloqqa yetib kelmagunlaricha yuraverdilar.
- 939) Do‘stim menga aytmaguncha, uning ismini eslay olmadim.
- 940) Kirsam mumkinmi?
- 941) Professor, sizga savol bersam maylimi?
- 942) Telefoningizdan foydalansam bo‘ladimi?
- 943) Men o‘zim yoqtirgan, istagan o‘yinni o‘ynasam mumkinmi?
- 944) Agar yomg‘ir yog‘ib yuborsa, biz qaytamiz.
- 945) Agar istasangiz, men sizga yordam beraman.
- 946) Agar zarurat tug‘ilsa, biz siz bilan yana bog‘lanamiz.

- 947) Agar sen bugun uyga kechroq kelsang, bir o‘zing ovqatlanishingga to‘g‘ri keladi.
- 948) Agar biz yana biroz raqsga tushsak, qarshi emasmisiz?
- 949) Ishonamanki, agar kelsang achinmaysan.
- 950) Agar men soat to‘qqizda kelsam, siz hali ham ishlayotgan bo‘lasizmi?
- 951) Agar bu kitob qiziqarli bo‘lsa uni o‘qigani olsam maylimi?
- 952) Agar siz bu qoidani tushunmayotgan bo‘lsangiz, men uni sizga yana bir bor tushuntirib qo‘yaman.
- 953) Agar qo‘rqqaniningizni sezdirib qo‘ysangiz, it sizga tashlanadi.
- 954) Agar men bu yerda ishdan keyin qoladigan bo‘lsam, bugun senikiga kelolmayman.
- 955) Menimcha, do‘stlarimiz Toshkentga yoki ertaga, yoki bo‘lmasa indinga kelishadi.
- 956) Siz u yerga bormasangiz ham bo‘ladi.
- 957) Quyosh charaqlab turgan bo‘lsa ham hali ham sovuq edi, chunki ikki soat davomida qattiq yomg‘ir yoqqan edi.
- 958) Garchi, bu poyabzal narigisidan yaxshiroq bo‘lsa-da, men uni olmayman, chunki u noqulay.

- 959) Na aktyor va na rejissor bo‘lmasalar-da, baribir o‘z hayotlarini teatrsiz tasavvur qilolmaydigan kishilar ham bor.
- 960) Men unga nima maslahat bergen bo‘lsam, u o‘shani qildi.
- 961) Qancha rost gapirsangiz, shuncha yaxshi.
- 962) Siz dorini qanchalik tezroq ichsangiz, shunchalik tezroq o‘zingizni yaxshiroq his qilasiz.
- 963) Siz qanchalik tezroq jo‘nasangiz, manzilingizga shunchalik tezroq yetib olasiz.
- 964) Qanchalik issiqroq bo‘lsa, men o‘zimni shunchalik yomonroq his qilaman.
- 965) Qanchalik ko‘proq o‘qisangiz, shunchalik zukkoroq bo‘lasiz.
- 966) Siz Qrimda qancha ko‘p vaqtingizni o‘tkazsangiz, shuncha tez tuzalasiz.
- 967) Dunyoda pok odamlar qanchalik ko‘paysa, nopolk odamlar shunchalik kamayadi.
- 968) Yer yuzida qancha millat, xalq, elat bo‘lsa, shuncha til bor.
- 969) Inson qanchalik ma’rifatli bo‘lsa, el-yurtga shunchalik ko‘p foydasi tegadi.
- 970) Boshlaymi?
- 971) Derazani yopaymi?

- 972) Men nima qilay?
- 973) Unga biror narsa deb qo‘yaymi?
- 974) Sizga uch ming so‘mlik marka beraymi?
- 975) Sizni qayerda kutaylik?
- 976) Yaxna ovqatga nima keltiraylik?
- 977) Bu hikoyani o‘qishda davom etaylikmi?
- 978) Taksi ola qolaylik.
- 979) Yomg‘ir tinguncha kutib turaylik.
- 980) Bunchalik tez yema.
- 981) O‘zing yoqtirgan kitobingni ol.
- 982) Men qaytgunimcha shu yerda tur.
- 983) Agar borishmasa, ularni o‘zing bilan olib kel.
- 984) Yaxshisi endi o‘rningga yotaqol. Xayrli tun.
- 985) Shoshiling!
- 986) Uchrashuv haqida kelishib oling.
- 987) U bu yerda qancha bo‘lmoqchi ekanligini so‘rang.

- 988) Shu tomonga sarg‘ish binoni ko‘rmaguningizcha boravering.
- 989) O‘tinaman, shovqin qilmang.
- 990) Iltimos, menikiga ertaga kechqurun kelinglar.
- 991) Iltimos, chiroqni yoqib qo‘ying.
- 992) Televizorni o‘chiring, iltimos.
- 993) Menga yana bir tarelka sho‘rva bering, iltimos.
- 994) Marhamat qilib, u kelguncha uni shu yerda kutib turing.
- 995) Marhamat qilib surishtiring-chi, ular bizga boshqa xona bera olishadimi?
- 996) U sizni mehmonxonada kutsinmi?
- 997) Jahlingiz chiqmasin, iltimos. Men ertaroq kela olmasdim.
- 998) Uyida o‘qisin deb men kitobni unga berdim.
- 999) U qayerga bormasin uni yaxshi kutib olishdi.
- 1000) Ta’tilni yaxshi o‘tkazing. Vaqtingiz chog‘ bo‘lsin!



O'zbek Tilining Asosiy 1000 ta Jumla  
Basic Uzbek Phrases 1000  
ILCAA Intensive Language Course 2013: Uzbek, Textbook 4

ウズベク語基礎例文 1000  
平成 25 年度言語研修 ウズベク語研修テキスト 4

平成 25 年 7 月 26 日 発行

著者 中嶋 善輝

発行 東京外国語大学  
アジア・アフリカ言語文化研究所  
〒183-8534 東京都府中市朝日町 3-11-1  
TEL. 042-330-5600

印刷 日本ルート印刷出版株式会社  
〒135-0007 東京都江東区新大橋 1-5-4  
TEL. 03-3631-3861

©Yoshiteru NAKASHIMA

ISBN 978-4-86337-136-1



ISBN 978-4-86337-136-1

